



Factors activating the content of prohibition in speech (on the example of Uzbek and Japanese languages)

Ozoda ACHILOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

15 November 2024

Keywords:

prohibition,
permission,
direct,
indirect,
implicit,
explicit,
prohibitive,
permissive,
performative verbs.

ABSTRACT

This article examines the factors influencing the occurrence of prohibition-oriented speech acts in Uzbek and Japanese communication, as well as the elements that ensure effective interaction. It provides examples of both direct and indirect realizations of prohibition, underscoring the role of illocutionary force in such sentences. Furthermore, the article highlights that one feature distinguishing prohibitive speech acts from permissive ones is the relatively rare use of the performative verb one of the direct means of realizing prohibition in dialogical speech.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss6-pp201-205>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nutqda taqiq mazmunini faollashtiruvchi omillar (o'zbek va yapon tillari misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Taqiq,
ijozat,
bevosita,
bilvosita,
implisit,
eksplisit,
proxibitiv,
permissiv,
performativ fe'llar.

Mazkur maqolada o'zbek va yapon tillarida taqiq mazmunidagi nutqiy aktlarning muloqot matnida voqelanishida tayaniladigan omillar va muloqot samaradorligini ta'minlovchi unsurlar haqida fikr yuritilgan. Taqiq akti bevosita va bilvosita sodir bo'lishi hamda ushbu turdagi jumalalarda illokutiv kuchning ahamiyati haqida misollar keltirilgan. Shuningdek, proxibitiv nutqiy aktini bevosita voqelantiruvchi vositalardan biri bo'lgan performativ fe'lning dialogik nutqda nisbatan kam uchrashi permissiv nutqiy aktlaridan tafovutli jihatlardan ekanligi bilan bog'liq ayrim fikrlar qayd etilgan.

¹ PhD, Associate Professor, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Факторы, активизирующие содержание запрета в речи (на примере узбекского и японского языков)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

запрет,
разрешение,
прямой,
косвенный,
имплицит,
эксплицит,
прохибитив,
пермиссив,
перформативные глаголы.

В данной статье представлено мнение о факторах, на которые опираются реализации речевых актов в тексте общения на узбекском и японском языках и элементах, обеспечивающих эффективность общения. Приводятся примеры прямых и косвенных глаголов, а также значение иллокутивной силы в этом типе предложений. Также имеются некоторые моменты, связанные с тем, что перформативный глагол, являющийся одним из средств непосредственной реализации запретительного речевого акта, сравнительно редко встречается в диалогической речи, отличающейся от разрешительных речевых актов.

KIRISH

Taqiq akti bevosita va bilvosita sodir bo'lishi mumkin. Aytish joizki, proxibitiv nutqiy aktini bevosita voqelantiruvchi vositalardan biri bo'lgan performativ fe'lning dialogik nutqda nisbatan kam uchrashi kuzatiladi. Chunki nutqiy vaziyatning bevositaligi ortiqcha unsurlarning tushirib qoldirilishini taqozo etadi va lisoniy tejamkorlik tamoyiliga amal qiladi. Taqiqning bu tarzda ifoda topishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri og'zaki nutqning favqulodda kechishi, elliptik ko'rinishga ega bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, quyidagi misollarni qiyoslaymiz:

「もう二度と行くな、禁止されている。」

Endi qaytib borma, taqiqlangan. (星新一「愛用の時計」:124b).

「電車に送るといけないので彼は早く発った。」

(プログレッシブ和英辞典第3、2002).

Poyezdga kech qolsa bo'lamaydi, shuning uchun u erta jo'nadi.

Birinchi misolda adresatning harakati xavf ostida bo'lgani bois, uni ushbu xavfdan qutqarish uchun tuzilmaning undash mazmunini alohida ta'kidlashga ehtiyoj tug'ilgan va bunga “禁止されている” performativ birikmasi orqali erishilmoqda. Ikkinchi misolda esa bunday xavf bo'lmaganligi sababli taqiq to'g'ridan-to'g'ri hech qanday ogohlantirishsiz va ta'kidsiz ifoda etilmoqda. Yana bir misolni qiyoslaymiz:

お母さん娘へ：「あんまり勝手なことを言うな。」

(芥川龍之介集-東京：筑摩：215 b).

Ona qiziga: “Hayolingga kelgan gaplarni aytaverma”.

Ushbu holatda performativ shaklning qo'llanishi kommunikantlardan birining mavqei ancha baland ekanligi va u suhbatdoshiga qa'tiy ravishda yo'l-yo'riq ko'rsatish huquqiga egaligi bilan izohlandi. Taqiq nutqiy aktining bevosita ifodalanishida fe'lning majhul darajasidan foydalanish holatlari ham kuzatiladi. Masalan: 「犬の放し飼いは法律により禁止されています。」

(プログレッシブ和英辞典第3版電子バージョン: 2002).

Itlarni bo'sh qo'yilgan holatda boqish qonunda taqiqlangan.

Bu yerda majhul darajani ishlatilishi taqiqning jamiyatdagi ma'lum qoidaga asoslanishi bilan bog'liq. Ta'kidning kuchsizlanishi esa, taqiqning izohlanishiga asoslanadi. Harholda, taqiq nutqiy aktining bevosita va t'kidli ifodalanishi eng ko'p inkor predikati qo'llanishida yuzaga keladi:

「人のせいにしないでよ。」 (赤川次郎 「ふたり」 : 192 b).

Aybni birovga ag'darma.

Bu holatda “ないで (bajarmaslik)” inkor predikativning leksik sinonimi sifatida “駄目 (mumkin emas yoki yaxshi emas)” birligi qatnashadi. Ushbu birlik suhbatdoshning ma'lum bir harakati befoydaligiga urg'u berish replikasida ko'p uchraydi: 「運命に逆らっても駄目だ。」

(プログレッシブ和英辞典第3版電子バージョン: 2002).

“*Taqdirga qarshi chiqish yaxshi emas*” yoki “*Taqdirga qarshi chiqma*”.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Keltirilgan misollarda 「駄目」 (mumkin emas yoki yaxshi emas) to'lig'icha 「ないで」 (bajarmaslik) predikativining muqobili sifatida taqiq prgamatik maqomi jihatidan konstativ nutqiy aktiga yaqinlashayotgan gaplar tarkibida ham paydo bo'la oladi. Qiyoslang:

- ちょっと見せてくれ、
- 駄目だ。(プログレッシブ和英辞典第3版電子バージョン: 2002 b)
- Ko'rsatib yuboring
- Yo'q, mumkin emas.

Nihoyat, taqiq nutqi akti ifodasining grammatik shakllar haqida gapirayotib, eng keng tarqalgan vosita buyruq maylining shakli ekanligini unutmasligimiz lozim. Ushbu ko'rinishda shakllangan proxibitivlarning soni 40%dan ortadi. Masalan: 「まだ見るなよ。」 *Hali qaramay tur.*

「ふたりが必ずしも死んだとは思わないでください。」

(遠藤周作集 「新潮日本文学」 : 29 b.).

Ikkalasi ham aniq halok bo'ldi, deb o'ylamang.

NATIJALAR

Proxibitiv nutqiy aktining yapon tilida bilvosita ifodalanishi qator sotsiopragmatik omillar bilan bog'liq. SHu sabab bo'lsa kerak-ki, uning turli variantlari mavjud. Taqiq mazmuni, eng avvalo, darak gap shaklidagi tuzilma vositasida voqelanadi (6,5%) va ushbu tuzilmada predikativ bo'lak tasdiq mayli ko'rinishiga ega.

Proxibitiv nutqiy akti odatda bir qator yordamchi harakatlar bilan hamrohlikda voqelanadi. Bunday harakatlar, masalan, taqiqni kuchaytirish yoki yumshatish vazifasini bajaradi. Ushbu vazifada ayniqsa, murojaat vositalari faoldir. Murojaat muloqot kontekstida “nutqiy tuzilmaning illokutiv imkoniyatini oshiradi” Murojaat birligining unga ehtiyoj bo'lmagan vaziyatda qo'llanishi bir tomondan, so'zlovchining u, xuddi hurmat formulalari kabi, nutqning ta'sir kuchini oshiradi degan fikri bilan izohlanadi. Bu, ayniqsa, kishilarning ismi-sharifi yoki shaxsiga urg'u berilib tilga olinganda ochiq namoyon bo'ladi. Masalan: 「お前は出世を望むな。」 (樋口一葉 「たけくらべ」 : 158 b).

Hoy, sen muvaffaqiyat haqida umid qilma.

Ammo murojaatlar turli xususiyatlarga ega bo'lib, ularni turli mezonlar asosida tavsiflash mumkin. Murojaat shakllari “insonlarning doimiy xususiyatlari bilan bog'liq holda turg'un, vaqtinchalik, o'zgaruvchan, vaziyat bilan bog'liq bo'ladi. Stilistik ko'rsatkichlariga nisbatan ular badiiy, badiiy-og'zaki, norasmiy, kasbiy, jargonga tegishli guruhlariga taqsimlanadi” (Bragina 2000: 45-48).

MUHOKAMA

Murojaatlar turlarining qo'llanish darajasi bir xil emas. Biz to'plagan misollardan jami 22%ida murojaat mavjud bo'lsa, shundan 33%i murojaat ism-sharif ko'rinishiga ega. Ko'pchilik holatlarda murojaat kamsitish mazmuniga ega. Murojaatlarning boshqa turlarga olmosh ko'rinishida ega yoki adresatning kasbi, oiladagi maqomi, yoshi, jinsi kabilar bilan bog'liq.

Xullas, murojaatning yordamchi harakat sifatida qo'llanishi proxibitiv nutqiy aktlar uchun majburiy talab emas. Kamsitish, haqoratomuz mazmunida faollashadigan murojaat shakllari taqiqni kuchaytirishga xizmat qilsa, ularning hurmat kategoriyasiga tobe holda qo'llanish vaziyatlari ham kam emas.

Ma'lumki, direktiv nutqiy aktlari dialogik nutq muhitida boshqa yordamchi harakatlar bilan ham birikadi va shundaylardan biri taqiqni asoslovchi yoki dalillovchi harakatdir. Ushbu turdagi nutqiy harakat taqiqni yumshatishi yoki aksincha qa'tiylashtirish vazifasini bajaradi. Dalillash harakatining dastlabki vazifasi perlokutiv ta'sirga erishishni ta'minlashdir va bunda asosiy nutqiy harakatning perlokutiv imkoniyatini kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Taqiqni asoslash uchun ma'lum vaziyat yuzaga kelishi zarur. Binobarin, adresat so'zlovchi istayotgan harakatni bajarish imkoniyatiga ega bo'lganida bildirilayotgan mulohaza o'rinli eshitiladi. Bunda V.I. Karaban qayd etganidek, 1) adresatning ahvoli buyurilayotgan harakatni bajarishga imkon yaratadi; 2) muloqot vaziyati (zamon, makon, kommunikantlar munosabati) so'zlovchiga o'z istagi amalga oshishiga umid tug'diradi (Karabin 1993: 141).

Bundan tashqari, V.I. Karabanning qaydicha, taqiqning asoslanishiga adresatning ijtimoiy mavqei, uning individual xususiyatlari ham ma'lum darajada sabab tug'diradi.

Jumladan, biz tahlil qilgan misollarining qariyb 20%ida taqiqni asoslovchi yordamchi nutqiy harakatlar mavjudligini aniqladik. Ulardan ba'zilari tinglovchining yuklatilayotgan majburiyatga qarshiligi tufayli yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, so'zlovchining ijtimoiy mavqei unga taqiq huquqini bermasligi bilan bog'liq. Illokutiv ta'sirning kuchaytiruvchi vositalari qatoridan turli ko'rinishdagi intensifikatorlar o'rin oladi. Kuchaytirish vazifasini bajaradigan leksik va sintaktik birliklar maxsus so'zlardan tashqari, turli ko'rinishga ham ega va tuzilma tarkibidagi u yoki bu bo'lakni alohida ta'kidlash xizmatini o'taydi. Mazkur turdagi intensifikatorlar taqiq harakatini faollashtiradi va ular so'zlovchining o'zi yoki tinglovchiga yo'naltirilgan bo'ladi. Taqiq nutqiy aktining dialogik muloqot jarayonida tinglovchining javobi muhim omilga aylanadi. Javob reaksiyasining qanday ko'rinishda bo'lishi muloqot samarasini belgilaydi.

Xullas inqirozli vaziyatlar suhbatdoshlar o'rtasida janjal kelib chiqqani va boshqa shunga o'xshash holatlar taqiq nutqiy aktning tuzilishi va tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda proxobitiv tuzilmasi qisqa ko'rinishga ega bo'lib, taqiq lo'nda va ta'kidli ohangda ma'lum qilinadi. Buyruq mazmunidagi maqollar jamiyatda kishilar tomonidan ijobiy qabul qilinadi va ularning nojo'ya xatti – harakatlarini nazorat qilish va taqdirga bo'ysunish, rostgo'ylik kabi turli shaxsiy qadriyatlarni targ'ib qilishda asosiy omil sifatida qaraladi. Ayrim maqollarda suhbatdosh kayfiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadigan yumor, ajablanish va mubolag'a kabi vositalar ham qo'llanilishi mumkin. Ushbu usul bilan murojaat qilish orqali so'zlovchi tinglovchi kayfiyatiga salbiy ta'sir o'tkazish holatidan chetlanadi.

XULOSA

Maqollar ogohlantirish va kinoya yoki masxara qilish quroli sifatida ham ishlatiladi. Shuningdek, ba'zi imperativ maqollar odamlarni dangasalikni to'xtatishga va hayotga bo'lgan intilishni oshirish kabi kishi ko'ngliga malham bo'lishi bilan birga, kundalik hayotdagi qiyin vaziyatlar yoki turli ziddiyatlarga duch kelganda kishini sabr – toqatli bo'lishga undash xususiyatiga ham ega. Maqollar tarkibida ishtirok etadigan bir xil ma'noli elementlar yapon va o'zbek xalqining diniy e'tiqodi, madaniy muhiti va tabiatga bo'lgan tasavvuri asosida boshqa bir unsur bilan o'rin almashgan holda tarjima qilinishi mumkin. Ushbu holat muqobil tarjima jarayonida maqol mazmuniga putir etkazmaydi. Yapon maqollari tarkibida ishtirok etayotgan ayrim iboralar va jumlar o'zbek tilida bir qancha ekvivalentlar bilan o'rin almashinishi mumkin. Albatta bunday hollarda so'zlar yoki jumlar so'zma – so'z muqobillashtirilmasa – da, maqoldan ishora qilinayotgan holat butun bir yaxlit xolda muqobillashtirilishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абе Кейко (阿部佳子) 疑問命令文について：関連性理論の立場から//人間文化研究科年報、№ 16. - 奈良女子大学. 2000 .
2. Achilova O. F. MULOQOT MATNIDA MAQOLLARNI FAOLLASHTIRUVCHI OMILLAR (o'zbek va yapon tili misolida). Til va adabiyot, №. 19. 2024. B-221-223.
3. Achilova O. F. ИМПЕРАТИВ МАҚОЛЛАРДА МУҚОБИЛ ТАРЖИМА УСУЛЛАРИ. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2024-10/4. – B.311-313.
4. Исикава Микико (石川美紀子) 「命令に関する試論—語用論的条件と構文的条件との関係から—」 - 2002.
5. Лутфиллоева Ф. Япон иероглифларини ўқитиш методикаси ва ривожланиш тенденциялари //Хорижий филология. Тил. Адабиёт. Таълим.–Самарқанд,-2020. – 2020. – Т. 4. – №. 77. – С. 93-100.
6. Сафаров Ш.С. Лингвистика дискурса. – Челябинск: 2018.
7. Ҳақимов М. Прагмалингвистик тадқиқотлар тарихи. – Фарғона: ФарДУ, 2020. – 143 б.
8. プログレッシブ和英辞典第3版電子バージョン: 2002.
9. 遠藤周作集 「新潮日本文学」 : 29 b.
10. Kholikov, B. (2020). PATRIOTIC EDUCATION IN THE LITERARY PICTURE OF THE WORLD (ON EXAMPLES DETECTIVE NOVELS). In МИССИЯ КОНФЕРЕНЦИИ «ФЕНОМЕН ПАТРИОТИЗМА В ТРАНССТРУКТУРНОМ КОММУНИКАЦИОННОМ ПОЛЕ» (p. 157).
11. <http://www.lex.uz>
12. <http://lex/uz/docs/3765586>.
13. <https://bilimlar.uz/maqollar>
14. <http://www.ziyo.uz>
15. <https://maqollar.uz>
16. <http://www.natlib.uz>